

**Esenova.I.M**  
**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**  
**Tabiiy geografiya va gidrometeorologiya kafedrası**  
**O‘zbekiston Nukus**

## **UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA DARSLARIDA SINF DAN TASHQARI DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografiya ta’limining samaradorligini oshirish, geografiya o‘qituvchisining pedagogik mahorati hamda geografiya ta’limida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish masalalari yoritilgan*

***Kalit so‘zlar:** Geografiya ta’limi, sinfdan tashqari ishlar, kreativ qobiliyat, ijodkorlik, zamonaviy ta’lim metodlari.*

**Esenova I.M.**  
**Karakalpak State University named after Berdakh**  
**Department Physical Geography and Hydrometeorology**  
**Uzbekistan Nukus**

## **THE IMPORTANCE OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR LESSONS IN GEOGRAPHY LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS**

***Abstract:** This article highlights the issues of improving the effectiveness of geography education, the pedagogical skills of the geography teacher, and the organization of extracurricular work in the development of students' creative abilities in geography education*

***Keywords:** Geography education, extracurricular activities, creative abilities, creativity, modern teaching methods.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uning samaradorligini yana oshirish maqsadida yangi islohatlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi natijasida ta’lim sohasidagi ishlarda keng ko‘lamga erishildi. Bu hujjatlar asosida barcha ta’lim muassasalarida ta’limga e’tibor kuchaydi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha uslub va yondashuvlarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Yosh avlodni bilim olishlarini yanada qulaylashtirish, bilimlarni tez va oson o‘zlashtirishlari hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishni bilishlari uchun yangidan yangi inoovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish davom etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta‘lim sohasining maqsadi va mazmuni yangilanib bormoqda, asosiy e‘tibor raqobatga chidamli yetuk kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, bunda asosiy vazifa o‘qituvchilarga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga o‘qituvchi tomonidan bajariladigan muhim vazifa o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va ilmiy tajribalarini kelgusi hayotida amalda qo‘llay olishdan iborat. Har bir o‘qituvchi o‘quvchiga shaxs sifatida qarashi lozim. Chunki maktabga kirgan har bir o‘quvchi - ertangi kunning jamiyat a‘zosi, kelajak egasi hisoblanadi.

Shuning uchun ham maktabda o‘qitiladigan har bir fanning samarali tashkil etilishiga etibor berishimiz lozim, bunda dasturiy darslardan tashqari sinfdan tashqari darslar (to‘garak)ning o‘tkazilishiga ham aloqida e‘tibor qaratishimiz lozim.

Geografiya ta‘limining samaradorligini oshirishda zamonaviy ta‘lim metodlari va vositalari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati ham katta. Ayniqsa, o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va olib borish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatlarining rivojlanishi, shuningdek, fanga bo‘lgan qiziqishining ortishi o‘qituvchi tomonidan sinfdan tashqari ishlarni qanchalik samarali tashkil etishiga bog‘liq. Geografiya fani bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, o‘quvchilar dars davomida to‘liq o‘zlashtira olmagan materiallarni aynan sinfdan tashqari ishlarda o‘zlashtirishlari mumkin.

Geografiya fanidan o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarning ta‘limiy va tarbiyaviy vazifalari ajratilib, bu vazifalar geografiya ta‘limining umumiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. O‘quvchilarning nafaqat kreativligini, balki ularda o‘zaro do‘stona munosabat, hamkorlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat hamda biror kasbni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va mustaqil idrok qilish jarayonida o‘quvchilarning intellektual – ijodiy mahsulot ustida ishlashi amalga oshirilib, o‘qituvchi o‘quv jarayonini boshqarar va nazorat

qilar ekan, ayni vaqtda o'z o'quvchilarida kreativlikni, jumladan, kreativ – intellektual - ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar darsdagidek qat'iy talablar doirasidan biroz chiqib, ancha erkin, mustaqil faoliyat olib boradilar. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar o'zlarining o'qituvchiga ma'lum bo'lmagan qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Shu orqali o'qituvchi ulardagi kreativlik qobiliyatlarini seza olishi va shunga ko'ra uni rivojlantirishlari zarur bo'ladi.

Sinfdan tashqari darslarning maqsadi - o'quvchilarning har tamonlama rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Bu o'quvchiga berdigan tarbiyaviy maqsadning asosiy g'oyasi bo'lgan ma'naviy boylik, axloqiy poklik va jismoniy barkamol insonni tarbiyalashga yordam beradi.

Geografaiya darslarida sinfdan tashqari darslarning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari mavzuga oid holda fanni o'qitishning umumiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmunida ikkita asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) ta'lim va tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan maktab o'quvchilarining qiziqishini uyg'otadigan maktab kurslari mazmunining asosiy vazifalarini chuqurlashtirib o'rgatish;

2) joylarda amaliy ishlarni olib borishda, sinfda turli axborot manbalari bilan ishlashda, asboblarni, shuningdek kompyuterlardan foydalanishda tadqiqot xususiyatiga ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirishning turlari va shakllari juda xam ko'p bo'lib unda o'tiladigan mavzuga bog'liq holda darsning maqsadiga, uslubiy yo'nalishiga, o'quvchilarni qamrab olishga va sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish o'rniga bog'liq holda darsni tashkillashtirish mumkin. Geografiya fanida sinfdan tashqari ishlarni yakka tartibda yoki va guruh shakllarida olib borilsa bo'ladi.

Viktorinalar, savollar, o'yinlar va jumboqlar sinfdan tashqari ishlarning bir-biriga juda yaqin turlari hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi – to'garak ishlarni

qiziqarli o‘tishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, bu ishlar ijodkorlik va izlanishni kuchaytirishi, o‘quvchilarning fikrlash va taqqoslay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etish usullari ko‘pincha sinfdagi o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda tanlanishi kerak, chunki ularning tanlovi, avvalo, o‘rganiladigan materialning mazmuni- geografik bilimlar bilan mos kelishi lozim. Geografiya fani bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning turlari juda ham ko‘p bo‘lib ularni mavzuga oid holda tanlanishi lozim.

- o‘zlari yashayotgan o‘lkaning tabiyatini yaxshi o‘rgatish maqsadida ochiq havoga sayohat tashkillashtirish;

- sinfdagi o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib zakovat o‘yinlarini o‘tkazish;

- geografik mavzularga oid o‘quvchilar ishtirokida tadbirlar tashkillashtirish;

- iqtisodiy geografik bilimlarini yanada rivojlantirish maqsadida o‘lkadagi karxona va ishlab chiqarish o‘rinlariga o‘quvchilarni olib borish va boshqa da yunalishlari bor.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozim geografiyaning fan sifatida o‘ziga xos xususiyati shundaki, aynan shu fan yordamida talabalar dunyoga yaxlit nuqtai nazarda qarashni o‘rganadi, shuningdek, geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, mustaqil xulosalar chiqarish, o‘z-o‘zini namoyon qilish hamda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda eng muhim vositalardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Esenova I. M. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHNING AHAMIYATI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 11. – С. 358-360.
2. Ходжаева Г.А., Жиёмуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим хәм жәмийет, №2, 2020. 66-68 б
3. Esenova I. M., Kurbanazarov B. M. GEOGRAFIYA PÁNIN OQÍTWDA INTERAKTIV METODLARDAN PAYDALANÍWDÍN ÁHMIYETI //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – T. 1. – №. 3. – С. 346-349.

4. Ходжаева Г.А., Жиёмуратова Г.О. География пәни сабақларында аўызеки методтан пайдаланыўдың әҳмийети // Вестник Каракалпакского государственного университета, №3, 2021. 85-88 стр.
5. Ходжаева Г.А., Жиёмуратова Г. Geografiya darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakillantirish masalalari// Янгиланаётган Ўзбекистонда география: фан, таълим ва инновация республика миқёсидаги илмий-амалий конференция, Тошкент, 15-декабрь,2021. 352-354 б
6. Худайбергенов Н. С., Ганиев Н. Ж., Есенова И. М. EKOTURIZMNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI BOSQICHLARI //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 298-302.
7. Ходжаева Г.А., Нурланов А.С., Алланазаров К.Ж., Ҳесенова И.М МЕКТЕПЛЕРДИŃ ОҚИШ ҲАМ ТАРБИЯЛИҚ ИСКЕРЛИГИН ЖЕТИЛИСТИРИШ МАШҚАЛАЛАРИ Вестник КГУ им. Бердаха. № 2(60) 2023.195-196\.
8. Tilakova M.A. VIII-IX sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т.: - 2019. – 72 б.